

**OILA VA XOTIN-QIZLAR QO'MITASINING AYOLLAR UCHUN ISH O'RINLARI YARATISH BO'YICHA ISLOHOTLARI****Razzoqova Shohsanam Yoqub qizi**

O'zbekiston Jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrası stajyor o'qituvchisi

Tariximizga nazar tashlasak, To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy va Zulfiya kabi buyuk ayollar ko'plab muhim ishlarning boshida turganligini ko'ramiz. Ularning jasorati, aqlli fikrlari va mardligi tarixda o'z izlarini qoldirdi. Bunday siymolarning davomchilari ekanligimiz bizga bugungi kunda xotin-qizlar sifatida g'urur va faxr tuyg'ularini his qilish imkonini beradi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo'lgan e'tibor ortdi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning har jihatdan faoliyatini oshirish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" haqidagi PF-5325-sonli Farmoni e'lon qilindi [1]. Ushbu Farmon asosida bir qator ishlar amalga oshirilib, ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning o'quv jarayonidagi samaradorligini oshirish bo'yicha faoliyatlar olib borilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat tomonidan jiddiy ishlar qilinmoqda. Zero, jamiyat rivoji xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Shuning uchun ayollarning oilada va davlat, jamoat ishlarida faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mamlakatimizda ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, ayollarni ish bilan ta'minlash va ularning iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu islohotlar, ayollarning mehnat bozoridagi o'rini mustahkamlash, ularning malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan [2].

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, ayollarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqmoqda. Bu dasturlar, ayollarga yangi kasblarni o'rganish, malakalarini yangilash va ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning o'quv jarayonida samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham e'tiborga molik. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli loyihalarni amalga oshirmoqda. Ayollar uchun kredit va grantlar berish, biznesni rivojlantirishga oid treninglar tashkil etish orqali ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilishga harakat qilinmoqda [3]. Bu, nafaqat individual tadbirkorlik, balki oilaviy biznesni rivojlantirishga ham yordam beradi. Xotin-qizlarning mehnat bozorida tengligini ta'minlash maqsadida, ish beruvchilarni gender tengligiga amal qilishga rag'batlantirish choralari ko'rish zarur. Bunga, ayollarga mos ish sharoitlarini yaratish, ayol kadrlar uchun malakali lavozimlarni egallash imkoniyatlarini oshirish kiradi.

Oila institutini mustahkamlash va onalikni qo'llab-quvvatlash ham Oila va xotin-qizlar qo'mitasining asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada bolalarni parvarish qilish uchun mo'ljallangan ijtimoiy dasturlar, ota-onalarga yordam berish, homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahat xizmatlari tashkil etilmoqda. Oila va xotin-qizlar qo'mitasining ayollar uchun ish o'rinlari yaratish bo'yicha islohotlari, albatta, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayollarni ish bilan ta'minlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va gender

tengligini ta'minlash orqali, mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Shunday qilib, ushbu islohotlar nafaqat ayollar, balki butun jamiyat uchun foydali bo'ladi [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi [1]. Mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag'batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko'lamini kengaytirish masalalari o'rin olgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизimini такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизimli қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон Фармони.
4. Базарова Д. “Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – давр талаби”. –Тошкент: ТДЮУ, 2019.
5. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Чўлпон, 2019.
6. Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари, 2019. // [www.stat.uz](http://www.stat.uz)